Amaliy mashg'ulotlarda talabalar velosiped sporti texnika va taktikasini o'rganadilar hamda takomillashtiradilar, uni o'rgatish, mashg'ulotlar o'tkazish usuliyotini o'zlashtiradilar.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruzalar, axborotlar bilan qatnashadilar, bu mashg'ulotlarda, shuningdek, ma'ruzalar kursi materialt, usuliy hamda amaliy mashg'ulotlar, o'quv amaliyotida olingan bilimlar tekshiriladi, talabalarning mustaqil ishlari, ularning kundalik o'zlashtirishi nazorat qilinadi va baholanadi.

O'quv rejasiga kiritilgan jismoniy tarbiya tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, fiziologiya, psixologiya va sport psixologiyasi, falsafa, pedagogika va sport pedagogikasi, bioximiya va sport bioximiyasi, milliy va sport o'yinlari, yengil atletika, gimnastika, fanlari bilan uzviy aloqada o'qitiladi.

### **Ixtisoslikka kirish**

Kursning predmeti, mazmuni va vazifalari. Velosport bo'yicha murabbiy-o'qituvchilarni tayyorlash qismi. Mazkur OO'YUning o'ziga xos xususiyatlari, uning qisqacha tarixi, velosiped sport turi kafedrasining an'analari. Bitiruvchiga qo'yiladigan talablar. Talabalarning huquq va majburiyatlari. Velosiped sporti jismoniy tarbiya tizimida. Velosiped sporti turlari, uning qisqacha tavsifi. Xalqaro velosipedchilar ittifoqi.

### **Velosiped sporti jismoniy tarbiya tizimida**

Velosiped sportining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati. Velosipeddan faol dam olish va jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida foydalanish.

Velosiped sport turlari, uning qisqacha tavsifi. Velosiped sportining rivojlanishini boshqaruvchi tashkilotlar. Xalqaro velosipedchilar ittifoqi (USI), uning nizomi va tuzilishi.

### **Velosiped sporti, rivojlanish tarixi**

Velosipedning ixtiro etilishi tarixi va uning tuzilishi, qismlari va ularning tutashgan joylarini modernizatsiyalash jaraeni. Velosipedning dastlabki ixtirochilari. Olimpiada o'yinlari,

jahon chempionatlari va muhim xalqaro ko'p kunlik poyg'alarining g'oliblari bo'lgan velosipedchilar.

### **Velosiped sportida sport faoliyati uchun obektiv Sharoitlar**

Musobaqalar o'tkaziladigan tashqi muhitning xususiyatlari. Shosse yo'llari, shahar ko'chalari va kross masofalari, ularning tuzilishi, rejasi, qoplami. Ochiq va yopiq velosiped treklari, ularning geometriyasi va qoplami. Stadionlarning sport yo'laklari. Iqlimiy va meteorologik sharoitlar. Yo'llar va velodromlarning yorug'lik bilan ta'minlanishi. Velosipedchilarning sport anjomlari va kiyimlari. Alohida, jamoaviy, guruhli musobaqalarda velosipedchining harakatlariga tashqi muhitning ta'siri. Sport faoliyatiga xos xususiyatlar.

### **Tasniflash, tizimlashtirish va atamalar**

Velosiped sportida «tasniflash», «atamalar», «tizimlashtirish» tushunchalari. Velosiped sporti turlarini tasniflash. Velosiped sporti texnikasi va taktikasini tasniflash. Sport tasnifi va uning tizimi. Sportchilarni yoshi, jinsi, sport tayyorgarligiga ko'ra tasniflash. Velosiped sportida atamalar: mashg'ulot-musobaqa amaliyoti, texnika, taktikaga xos atamalar. Atamalarga ko'yiladigan talablar. Xalqaro atamalar.

### **Velosiped sport turida texnika xavfsizligi**

Velosiped sportida jarohatlanish sabablari va poygalar, o'quv-mashg'ulot darslarida jarohatlarning oldini olish choralari.

Velosiped sporti o'quv-mashg'ulot va musobaqa amaliyoti jarayonida texnika xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.

### **Velosiped sporti bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish**

Velosipedchilarni tayyorlash tizimi va velosiped sportini targ'ib qilishda velosiped musobaqalarining tutgan o'rni va ahamiyati. Musobaqalarning moliyaviy ta'minoti va o'tkazilishi.

### **Trek bo'ylab poyga o'tkazishda velosiped sporti texnikasi**

Velosiped sporti texnikasi bo'limlari: o'tirish, pedalni aylantirish texnikasi va boshqarishga qo'yiladigan talablar. O'tirishning burchak va chiziqli o'lchamlari. Pedalni aylantirish texnikasi haqida tushuncha.

### **Shosseda velosiped sporti texnikasiga o'rgatish**

Alohida, jamoaviy va guruhli poygalarda, shosseda o'tkaziladigan kriterium poygasida velosipedchini texnika asoslariga o'rgatish: tegishli o'lchamdagi ramali velosipedni tanlash uchun velosipedchi gavdasi o'lchamlarini aniqlash, o'tirish uchtanovkasi.

### **Velobol, velotrial, figurali uchun texnikasi**

Velobolda xaydash texnikasi. O'yinchining o'tirishi va o'yindagi vaziyatning vazifalariga ko'ra uni o'zgartirish. O'tirishning o'lchamlari. To'pni qabul qilish va unga zarba berish, to'pni olib qo'yish va uzatish vaqtida pedalni aylantirish texnikasi va sportchining xatti-harakatlari.

## **Shosseda o'tkaziladigan poygalarda velosiped sporti taktikasi**

Velosiped sportida sport taktikasi asoslari. Velosipedchilar «taktikasi» va «strategiyasi» tushunchalari. Umumiy taktik g'oya va reja taktikani modellashtirish jarayoni sifatida.

### **Velosipedchining taktik mahorati**

Velosipedchining taktik mahorati: taktik bilimlar, malaka va ko'nikmalar, taktik fikrlash sifati. Taktik vazifalar, ularning aqliy (intellektual) va amaliy hal qilinishi.

### **Reja ishlab chiqish va tadqiqot o'tkazish**

So'rovnomalar tuzish. Tadqiqotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish. Tajriba ma'lumotlarini tahlil etish. Pedagogik tajribani tashkil qilish. Malakaviy bitiruv (bosqich) ishlarida foydalaniladigan xususiy usuliyatlarni ishlab chiqish.

### **Turli malakaga ega bo'lgan guruhlarda sport mashg'ulotlarini o'tkazish usuliyatining xususiyatlari**

Velosiped sportida sport mahoratini oshirishning ijtimoiy va biologik asoslari. Velosipedchilarning texnik-taktik mahoratini baholash mezonlari. Har xil malakaga ega bo'lgan guruhlarda mashg'ulot jarayonini tashkil etishning xususiyatlari.

### **O'quv-mashq jarayonini tashkil qilish, rejalashtirish va qayd etish**

OSMM, respublika, shahar terma jamoalari, idoralari, sport klublarida o'quv-mashq jarayonini tashkil qilish, rejalashtirish va qayd etish.

### **Sport natijalarini bashorat qilish**

Sport takomillashtirish jarayonini boshqarishni tashkil qilish. Boshqaruvning tarkibiy qismlarini amalga oshirish vositalari hamda usullari. YUqori malakali velosipedchilar tayyorgarligini dasturlashtirish uchun sport natijalarini bashorat qilishning ahamiyati.

### **Sport takomillashtirishni rejalashtirish**

Rejalashtirishning turlari. Rejalashtirish usullari.

### **Turli malakaga ega bo'lgan sportchilar va jamoalar uchun rejalashtirishning xususiyatlari**

Musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish tamoyili. Velosipedchining ixtisosligiga ko'ra istiqbol, joriy, tezkor rejalarning xususiyatlari.

### **Nazorat turlari**

Pedagogik nazorat va qayd etish ma'lumotlari asosida sport takomillashtirish rejalarini tahrir qilish usullari. Qayd etish shakllari. Sportchilar va murabbiylarning kundaliklaridagi ma'lumotlarni muntazam tahlil qilishning ahamiyati.

**Velosiped sporti nazariyasi va uslubiyati fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning TAQSIMOTI**

<b>№</b>	<b>Fan mavzularining nomi</b>	<b>Jami soat</b>	<b>Ma'ruza</b>	<b>Amaliy</b>	<b>Seminar</b>	<b>Mustaqil ta'lim</b>
<b>II semestr</b>						
<b>1.</b>	Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.	34	4	14	2	14
<b>2.</b>	Chempionlar xususiyatlari	42	4	16	4	18
<b>3.</b>	Amerikalik velosport murabbiyi	36	4	14	4	14
<b>4.</b>	Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari	36	4	12	4	14
<b>5.</b>	Kuchayish o'lchovi	38	4	14	4	16
<b>Jami:</b>		<b>184</b>	<b>20</b>	<b>70</b>	<b>18</b>	<b>76</b>

**ASOSIY QISM: FANNING USLUBIY JIHATDAN UZVIY KETMA-KETLIGI**

Asosiy qismda (mahruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, jismoniy tarbiya va sport sohasida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda fan - texnologiyalarning so'ngi yutuqlari ehtiborga olinishi tavsiya etiladi

**MAHRUZA MASHG'ULOTLARI**  
**2 semestr**

**1-2 Ma'ruza mashg'ulot: Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.**

Velosport nazariyasi va uslubiyoti faniga kirish. Velosport nazariyasi va uslubiyoti turlarining xarakteristikasi. Velosport nazariyasi va uslubiyotining kelib chiqish tarixi. Velosport nazariyasi va uslubiyotini rivojlanish bosqichlari. Jahonda Velosport nazariyasi va uslubiyotining rivojlanish tarixi. O'zbekistonga Velosport nazariyasi va uslubiyoti sportini kirib kelish va dastlabki musobaqalarning o'tkazilish tarixi. Olimpiada o'yinlari, Osiyo o'yinlari va Jahon chempionatlari hamda ularning natijalarini tahlili.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil. Bingo, blits, ajurali arra, nilufar guli, menyu, algoritm, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; A19; A20; A21; A22; Q1; Q2; Q6;

**11-12 Ma'ruza mashg'ulot: Chempionlar xususiyatlari.**

Xaydash paydo bo'lish tarixi. xaydash texnikasi. Xaydash va yugurish texnikasi fazalari. Velosiped xaydash texnikasida farq qiladigan xususiyatlari, harakat tsikllari, umumiy og'irlik markazi traektoriyasining harakatlanish xususiyatlari.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil. Pog'ona, qadamba-qadam metodi, Venn diagrammasi, T-sxemasi, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

### **23-24 Ma'ruza mashg'ulot: Amerikalik velosport murabbiyi.**

Xaydashda vazifalar ketma-ketligini o'rgatish uslubiyati. Xaydash texnikasini o'rgatishda vositalarning o'rni. Turli yosh guruhlarida xaydash texnikasini o'rgatishning asosiy usul va tamoyillari.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil. Blits-so'rov, zig-zag usuli, munozara, BBB, Insert, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

### **34-35 Ma'ruza mashg'ulot: Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari.**

Xaydashning turlari. Velosport xaydash turlarining xarakteristikasi. Xaydash turlari texnikasining asoslari. Xaydash turlarining bajarilish usullari. Xaydash turlarining fazaslari: yugurib kelish va depsinishga tayyorgarlik ko'rish. Xaydash turlarida uchush va qo'nishning ahamiyati. Turli xil sakrashlarda depsinish fazasining xususiyati. Har xil turdagi xaydashlarning sport natijalariga tahsir ko'rsatuvchi texnik omillari.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil. Integrativ, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

### **44-45 Ma'ruza mashg'ulot: Kuchayish o'lchovi.**

Velosporta taktika. Velosport "taktikasi" va "strategiyasi" tushunchasi. Sportdagi faoliyatni umumiy modelashtirishda taktika, Taktik maxorat va fikirlar. Taktik vazifalar va ilarni tezkor bajarilishi. Har xil turdagi xaydashlarning sport natijalariga tahsir ko'rsatuvchi taktik omillari.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil. B/B/B jadvali, munozara, Venn diagrammasi, T-sxema, o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

## **Velosiped sporti nazariyasi va uslubiyati fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining taqvim tematik rejasi.**

<b>№</b>	<b>Ma'ruza mavzulari</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
<b>1</b>	Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.	<b>4</b>
<b>2</b>	Chempionlar xususiyatlari	<b>4</b>
<b>3</b>	Amerikalik velosport murabbiyi	<b>4</b>
<b>4</b>	Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari	<b>4</b>
<b>5</b>	Kuchayish o'lchovi	<b>4</b>
<b>Jami soat:</b>		<b>20</b>

## **AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARNING TAVSIYA ETILADIGAN MAVZULARI**

**3-9 Amaliy mashg'ulot: Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.** Velosiped sport rivojlanish tarixi, dunyo va respublika miqyosida. Velosipedni ishlab chiqish texnologiyalari, ilk musoboqalar sharhi.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4;



**10 Seminar mashg'ulot: Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi. (1 j/n)**

Velosiped sport rivojlanish tarixi, dunyo va respublika miqyosida. Velosipedni ishlab chiqish texnologiyalari, ilk musoboqalar sharhi.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4;

**13-20 Amaliy mashg'ulot: Chempionlar xususiyatlari.** Poygachilarning turli velotrek va shosselarda tezkor ko'rsatkichlarning tahlili. SHamol yonalishini aniqlash, shatun uzunliklarini aniqlash, YuKS tezliini aniqlash.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, shaxsga yo'naltirilgan tahlil.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4.

**21-22 Seminar mashg'ulot: Chempionlar xususiyatlari. (2 j/n)**

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

**25-31 Amaliy mashg'ulot: Amerikalik velosport murabbiyi.** Velosportchining sport faoliyatida kerak bo'ladigan atamalni tushuntirish, taxsimplash va amalda qo'lash.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4.

**32-33 Seminar mashg'ulot: Amerikalik velosport murabbiyi. (3 j/n)**

Velosportchining sport faoliyatida kerak bo'ladigan atamalni tushuntirish, taxsimplash va amalda qo'lash.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4.

**O'tilgan mavzular yuzasidan (test), (1- o/n)**

**36-41 Amaliy mashg'ulot: Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari.**

Harakat, tizim, tasnif tarkibi. Velosportchi harakat apparatining ishlash xususiyatlari, va velosipedning texnik moslamalari. Velosportchining shug'ullanish jarayonida mashg'ulot jarayonida sportchining energiyasini optimalashtirishga qaratilga malumot.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, keys-stadi, pinbord, aqliy hujum, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4.

**42-43 Seminar mashg'ulot: Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari. (4 j/n)**

Velosportchining shug'ullanish jarayonida mashg'ulot jarayonida sportchining energiyasini optimalashtirishga qaratilga malumot yo'itiladi.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

**46-52 Amaliy mashg'ulot: Kuchayish o'lchovi.**

Velosportdagi taktika va strategiya. Velosportchining imkoniyatlari va sharoatlardan taktikani o'zgarishi, velotrekda sportgilarning tezkor kuch sifatlarining taxlili. Velopoygalarda keng ko'laniladigan taktik variantlar bo'linib keng ko'rib chiqiladi.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4.

**53-54 Seminar mashg'ulot: Kuchayish o'lchovi.** Velosportdagi taktika va strategiya. Velosportchining imkoniyatlari va sharoatlardan taktikani o'zgarishi, velotrekda sportgilarning tezkor kuch sifatlarining taxlili. Velopoygalarda keng ko'laniladigan taktik variantlar bo'linib keng ko'rib chiqiladi.

Qo'llaniladigan tahlil texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli tahlil, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3; Q4.

### **O'tilgan mavzular yuzasidan (test). (2o/n)**

### **Velosport nazaryasi va uslubiyati fani bo'yicha amaliy va seminar mashg'ulotlar taqvim rejasi**

#### ***Amaliy mashg'ulotlari mavzulari:***

1. Shosseda o'tkaziladigan poygalarda velosiped sporti texnikasi.
2. Poygachilarni o'tirish o'lchamlarini olish.
3. O'tirishni belgilash, pedalni aylantirish texnikasini takomillashtirish.
4. Velotrialda masofani bosib o'tish texnikasi.
5. Shosseda o'tkaziladigan poygalarda velosiped sporti taktikasi.
6. Dars konspektini tayyorlash.
7. Pedalni aylantirish texnikasining asosiy elementlarini tushuntirish va ko'rsatish.
8. O'rgatish natijalarini nazorat qilish va baholash.
9. Trekda o'tkaziladigan musobaqalarga hakamlilik qilish.
10. Mashg'ulotning asosiy vositalari va ularni qo'llash usullari.
11. Tayyorgarlik turlari.
12. Tayyorgarlik turlari.
13. Saralash nazariyasi va tizimi.
14. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida darslarning rejalarini tuzish.
15. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida mashg'ulotlar o'tkazishga hozirlik ko'rish.
16. Jadvallar, chizmalar, ilmiy hisobotlarni tayyorlash.
17. Mashg'ulot darsini tashkil qilish va o'tkazish.
18. Turli malakali guruhlarda maxsus badan qizdirish mashqlarini o'tkazish.
19. Murabbiy yordamchisi sifatida ishlash.
20. Murabbiy yordamchisi sifatida ishlash.
21. Yig'inlar va musobaqalarda talabalarning murabbiy yordamchisi sifatidagi faoliyati.
22. Velotrenajyorlar.
23. Pedalni aylantirish texnikasini yanada takomillashtirish uchun VMM bajarish.
24. Musobaqalarga hakamlilik qilish.

#### ***Seminar mashg'ulotlari mavzulari:***

1. Velosiped sportida jarohatlanishning sabablari, poygalar va o'quv-mashg'ulot darslarda jarohatlarning oldini olish.
2. O'tirishni belgilash, pedalni aylantirish texnikasini takomillashtirish.

3. Velotrialda masofani bosib o'tish texnikasi. Trek bo'ylab poygalarda velosiped sporti texnikasi.
4. Velobol, velotrialda xaydash texnikasi. Velosipedda figurali uchish texnikasi.
5. Velosiped sportida taktika. Velosipedchining taktik mahorati.
6. Shosseda o'tkaziladigan poygalarda velosiped sporti taktikasi.
7. Velosipedchilarning jismoniy sifatlari.
8. Velosipedchilarga xos psixik sifatlari.
9. Musobaqalarga hakamlik qilish.
10. Shosseda o'tkaziladigan poygalarda velosiped sporti texnikasi. Krossda texnika.
11. Trek velosipedida pedalni aylantirish texnikasi. Trekda velosiped boshqaruvi texnikasi.
12. Shossedagi poygalarda velosiped sporti taktikasi. Guruhli poygada, kriterium poygasida taktika. Vaqt uchun poygalarda, ko'p kunlik poygalarda taktika.
13. Trekdagi poygalarda velosipedchi va jamoalarning taktikasi. Sprinterlik poygada taktika. Asosiy taktik usullar. Jamoaviy va guruhli poygalarda taktika.
14. Velosiped sportida texnika va taktikaga o'rgatish usuliyati.
15. Trekdagi velosiped sporti musobaqalariga hakamlik qilish. Velosiped sporti bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarga hakamlik qilish.
16. Velosportchida zarur harakat sifatlarini tarbiyalash va takomillashtirish.
17. OO'YU, O'TO'YUlarda velosiped sporti bo'yicha olib boriladigan ishlarning xususiyatlari.
18. Instrumental usuliyatlar, ilmiy asbob-uskunalarini amaliy o'rganish.
19. Sport mashg'uloti usuliyatiga xos xususiyatlar.
20. Talabalar tomonidan mashg'ulot darslari konspektlarining tuzilishi.
21. Sport natijalarini bashorat qilish.
22. Bitiruv malakaviy ishlari himoyasiga oid ko'rsatmalarni o'rganish, bitiruv malakaviy ishlari himoyasini sinovdan o'tkazish.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, qiyoslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, qonun va me'yoriy hujjatlardan foydalana bilish va boshqalar tavsiya etiladi.

**Amaliy va Seminar mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari**  
**Velosiped sporti fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarining taqvim rejasi**

№	Mashg'ulot turlari	Mavzu nomi	Ajratilgan soat
1.	Amaliy mashg'ulot	Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.	14
2.	Seminar mashg'ulot	Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.	2
3.	Amaliy mashg'ulot	Chempionlar xususiyatlari	16
4.	Seminar mashg'ulot	Chempionlar xususiyatlari	4
5.	Amaliy mashg'ulot	Amerikalik velosport murabbiyi	14
6.	Seminar mashg'ulot	Amerikalik velosport murabbiyi	4

7.	Amaliy mashg'ulot	Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari	12
8.	Seminar mashg'ulot	Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari	4
9.	Amaliy mashg'ulot	Kuchayish o'lchovi	14
10.	Seminar mashg'ulot	Kuchayish o'lchovi	4
<b>Jami soat:</b>			<b>88</b>
<b>Umumiy soat:</b>			<b>88</b>

### Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: ma'lumotlarni jadvallarda aks ettirish, ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, grafiklarda aks ettirish, slaydlar ko'rinishida belgilash, ko'rsatmali qurollarda aks ettirish va boshqalar.

Mustaqil ish bajariladigan mavzular bo'yicha savolnomalar tuzish, savollarga foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda yozma tarzda javob berish, me'yoriy hujjatlardan foydalanish, har bir mavzu bo'yicha muammoli masalalarni xal qilish yo'llarini bayon qilish, tavsiyalar berish va boshqalar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ishlar uchun mo'ljallangan mavzular:

1. Shosseda velosiped sporti texnika va taktikasi bo'yicha yozma nazorat ishlarini bajarish.

2. Texnik tayyorgarlik bo'yicha me'yorlarni bajarish.

3. UJT bo'yicha me'yorlarni bajarish.

4. Quyidagi kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni egallash: velosiped sporti texnikasi asoslarini o'rganish; sportchining tana o'lchamlarini aniqlash; velosiped ramasi o'lchamlarini olish; pedalni aylantirish texnikasi elementlarini tushuntirish va ko'rsatish; xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam beruvchi mashqlarni tanlash; pedalni aylantirish texnikasi elementlarini o'rgatuvchi velotrenajyorlarda bajariladigan mashqlarni tushuntirish va namoyish etish.

5. Bosqich dasturiga muvofiq nazariy materialni bilish, o'tilgan mavzular yuzasidan joriy nazorat talablarini bajarish.

6. Quyidagi kasbiy-pedagogik bilimlar, malaka va ko'nikmalarni egallash: ayrim elementlar va yaxlit mashqlarni bajarish texnikasini namoyish etish hamda tushuntirish; mashg'ulotlar konspektini tuzish, dars o'tkazish va uni pedagogik tahlil qilish; mashqlarni bajarish texnikasidagi xatolarni aniqlash va ularni tuzatish.

7. Yo'l harakati qoidalari bo'yicha sinov topshirish.

8. Quyidagi kasbiy-pedagogik ko'nikmalar va malakalarni egallash: velokross va shosse poygalari texnika va taktikasini o'rganish; velokross va shossedagi poygalarga ixtisoslashayotgan velosipedchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun mashg'ulotning turli usullarini qo'llash; texnik va taktik tayyorgarlikni takomillashtirish, rejalashtirish bo'yicha o'quv hujjatlarini tuzish; velosiped sporti musobaqalarida hakamlik qilish.

9. Quyidagi kasbiy-pedagogik bilimlar, malaka va ko'nikmalarni egallash: BO'SM o'quvchilari bilan o'quv-mashq ishlarini rejalashtirish hujjatlarini tuzish; BO'SMga saralashning asosiy usullarini qo'llash; yosh sportchilar bilan o'quv-mashg'ulot darslarini o'tkazish.

10. Bitiruv malakaviy ishining qoralama nusxasini taqdim etish.

11. Trekdagi musobaqalarga hakamlikda ishtirok etish hamda trekda o'tkaziladigan velosiped sport bo'yicha hakam unvonini olish uchun talablarni bajarish.

12. Bosqich dasturiga muvofiq sport tayyorgarligi bo'yicha talablarni bajarish: velosiped sportining tanlangan turi bo'yicha I razryadni tasdiqlash.

13. UJT me'yorlarini bajarish.

- 14.Dasturga muvofiq kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni egallash.  
 15.Musobaqalarga hakamlikda ishtirok etish.  
 16.Sinov topshirish.

### Talabalarning mustaqil ta'limining mazmuni va shajmi

Ishchi o'quv dasturining mustaqil tahlimga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil tahlimga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari	Xajmi (soatda)
<b>Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.</b>	Velosport sport turining rivojlanish bosqichlari. Yosh velosipedchilar sportining paydo bo'lishi. Yirik halqaro musobaqalarda ishtirokchilarning ilk chiqishlari.	1,2,3 xafta	16
<b>Chempionlar xususiyatlari</b>	Olimpiada o'yinlari va Jahon chempionatlarida trassalarni o'rganish. Poygachilarning turli velotrek va shosselarda tezkor ko'rsatkichlarning tahlili. 1 minut ichida SHatun aylanmasining soni.	4,5,6 xafta	14
<b>Amerikalik velosport murabbiyi</b>	Velosport sport turining atamaları: mashg'ulot- musobaqa amaliyoti, texnika va taktika atamaları. Terminlarga qo'yiladigan talablar. Halqaro terminologiya.	7,10,12 xafta	14
<b>Shug'ullanishga etibor va Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari</b>	Texnikaga o'rgatish va takomillashtirish. Muskul kuchlarini samarali ishlatish qoidalari.	11-14 xafta	14
<b>Kuchayish o'lchovi</b>	Turli velosport turlarida taktik rejalashtirishlarning misollari. SHaxsiy xususiyati va tashqi muhit bilan taktikaning aloqasi.	15-19 xafta	16
<b>Semestr bo'icha jami soat:</b>			<b>74</b>
<b>Umumiy</b>			<b>74</b>

**“Velosiped sporti nazariyasi va uslubiyati” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.**

**“Velosiped sporti nazariyasi va uslubiyati ”** fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda belgilangan talab me'yorlari bo'yicha amaliy va nazariy darslarda og'zaki topshirishadi.

- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi

va shakli (og'zaki) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YAN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. YAKuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "YOzma ish" shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday shollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rashbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rashbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Velosport nazariyasi va uslubiyati» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

**YAN**-30 ball, qolgan 70 ball esa **JN**-35 ball va **ON**-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish. Amaliy normativlarni bajara olish.
71-85	YAxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik

• Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

• Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan sholda baholanadi.

• Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:  $R = V * O' / 100$  bu erda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

• Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi (39 ball) saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

• Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb xisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligi xam mumkin.

• Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

• **ON** va **YAN** turlari fanning taqvim rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 xaftasi mobaynida o'tkaziladi.

• **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

• Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat

turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb shisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi shamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma xamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

### Talabalar ON va JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Nazorat turlari	Ballar taqsimoti		
		9	12	17
1	1 ON (og'zaki)	9	12	17
2	2 ON (og'zaki)	11	13	18
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>25</b>	<b>35</b>
1	1 JN (amaliy)	3	5	7
2	2 JN (amaliy)	4	5	7
3	3 JN (amaliy)	4	5	7
4	4 JN (amaliy)	4	5	7
5	5 JN (amaliy)	4	5	7
<b>Jami:</b>		<b>19</b>	<b>25</b>	<b>35</b>

Fan bo'yicha yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

Jami 30 ballni tashkil qiladi

№	Ko'rsatkichlar	YAN ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	30	0-30
<b>Jami</b>		<b>-</b>	<b>30</b>

### Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshiriladi. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabanning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali shisoblanadi.



## REYTING BAHOLASH TIZIMI

### Reyting nazorat jadvali

“Velosport nazariyasi va uslubiyati” fanining I bosqich II semestri uchun reyting mezonlari. Jami soatlar hajmi 182, shu jumladan auditoriya soatlari 108 (20 soat ma’ruza, 70 soat amaliy mashg’ulotlar va 18 seminar mashg’ulotlari), mustaqil ta’lim 74 soat.

### II-SEMESTR

Nazorat	№	Massh g’ulot	Mavzular	Ballar		
				3	4	5
Joriy nazorat (og’zaki)	1	9	Velosport sport turining tarixi. Velosipedni ishlab chiqish va takomillashtirish tarixi.	4	5	6
	2	17	Chempionlar xususiyatlari	4	5	6
	3	33	Amerikalik velosport murabbiyi	4	5	6
	4	47	Shug’ullanishga etibor va Mashg’ulotlarni tashkil etish tamoyillari	4	5	6
	5	-	Mustaqil ta’lim	4	5	11
Jami:				20	25	35
Oraliq nazorat (test)	1	18	Velosport texnikasining asoslari.	9	12	17
	2	53	Velokros texnik mahorati va jismoniy qobiliyatiga qarab taktik harakatlarni takomillashtirish. Velobolning, velotrialning texnik mahorati va jismoniy qobiliyatiga qarab taktik harakatlarni takomillashtirish	10	13	18
Jami:				19	25	35
Yakuniy nazorat			Yozma ish (semestr bo’yicha o’tilgan mavzular yuzasidan)	16	21	30
Jami:				16	21	30
Umumiy:				55	71	100

**“3” — 55 – 70 ball, “4” — 71 – 85 ball, “5” — 86 – 100 ball**

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati** **Asosiy adabiyotlar**

1. Fred Milson. Complete Bike Maintenance New and Expanded Edition: For Road, Mountain, and Commuter Bicycles, VP Books; New Edition, New and Expanded Edition edition, USA. (March 28, 2011).
2. Joe Friel. The cyclists training bible, Colorado, Velo Press, 2011
3. Chernikova Y.N. Velosipednoy sport 2014
4. Baxvalov V.A., Romanin A.N. Psixologicheskaya podgotovka velogonshika. M.: FiS. 1983 g.
5. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni /Yangi tahriri/ 27.06.2000 y. – T.: 2000 g. 21 s.
6. «Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 271-sonli Qorori / ot 27 may 1999 g./ T.: 1999 y. 14 s.
8. Bondarchuk A.P. Periodizatsiya sportivnoy trenirovki / Bondarchuk Anatoliy Pavlovich. - Kiev, 2000. - 567 s.: il.
9. Platonov V.N. Obo'aya teoriya podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte : ucheb. dlya studentov vuzov fiz. vospitaniya i sporta : dop. M-vom Ukrainq po delam molodeji i sporta / V.N. Platonov. - Kiev: Olimpiyskaya lit., 1997. - 583 s.: il.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Volkov V.M., Filin V.P. Sportivniyy otbor. M.: FiS. 1983 g.
2. Matveev L.P. Osnoviy sportivnoy trenirovki. M. Nauka. 1981 g.
3. Platonov V.N. Sovremennaya sportivnaya trenirovka. K. Zdorovya. 1980 g.
4. Emotsionalno-volevaya podgotovka sportsmenov.
5. Pod red. Filatova A.T. K. Zdorovya. 1982 g. Aktualg'nqe voprosq podgotovki sportsmenov v tsiklicheskix vidax sporta: sb. nauch. tr. / VGIFK. - Volgograd, 1993. - 123 s.: il.
6. Aktualg'nqe voprosq podgotovki sportsmenov v tsiklicheskix vidax sporta. vqp. 2 : sb. nauch. tr. / VGIFK. - Volgograd, 1995. - 188 s.
7. Vaynbaum Ya.S. Dozirovanie fizicheskix nagruzok shkolg'nikov. – M.: Prosveo'enie, 1991. – 64 s.
8. Ivanov G.D. Fizicheskoe vospitanie. – Tashkent: RIK, 1995. – 148 s.

### **Internet manbaalari**

Astana Cycling Team [www.astanafans.com](http://www.astanafans.com)

[www.velosportnews.ru](http://www.velosportnews.ru)

[www.velolive.com](http://www.velolive.com)

[www.veloroad.ru](http://www.veloroad.ru)

[www.sportrops.com.ua](http://www.sportrops.com.ua)

[www.fvsr.ru](http://www.fvsr.ru)

[www.velokat.ru](http://www.velokat.ru)

[www.x-bikers.ru](http://www.x-bikers.ru)

[www.X-Bikers.ru](http://www.X-Bikers.ru)

[www.x-bikers.ru](http://www.x-bikers.ru)

<http://www.edu.uz/>

<http://www.ZiyoNet.uz/>

<http://www.yandex.ru/>

<http://www.afu.uz/>

[www.athletics.ru/](http://www.athletics.ru/)

[www.iaaf.org/](http://www.iaaf.org/)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Ko'pkurash sport turlari  
fakulteti dekani

N.T.To'xtaboev

“ \_\_\_\_\_ ” “ \_\_\_\_\_ ” 2016 yil



**VELOSPORT NAZARIYASI VA USLUBIYATI FANIDAN  
MA'RUZALAR TO'PLAMI**



**Toshkent 2016 yil**

Mazkur ma’ruzalar to’plami zamonaviy adabiyotlar, xujatlar va velosiped sporti sohasida amaliy tajriba asosida tuzilgan. Barcha ma’ruzalar dolzarb hamda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ma’ruzalar to’plam O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutidagi velosport mutaxassisligi birinchi bosqich talabalari uchun mo’ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

Chernikova E.N. – o’qituvchi

Karimov I.I. – o’qituvchi

Xolmurodov O.Yu. – o’qituvchi

**Taqrizchilar:**

Lisyak A.A. -Velosport bo’yicha o’smirlar terma jamoasining katta murabbiyi

Olimov M.S. Yengil atletika, og’ir atletika va velosport nazariyasi va uslubiyati kafedra mudiri, p.f.n.,

Velosport nazariyasi va uslubiyati fani bo’yicha 1 bosqich talabalari uchun ma’ruza to’plami “Yengil atletika, og’ir atletika va velosport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasining 2016 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_\_\_\_” sonli bayonnoma yig’ilishida ma’qullangan.

**Yengil atletika, og’ir atletika  
va velosport nazariyasi va uslubiyati  
Kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_ **M.S.Olimov**

## MA'RUZA 1. VELOSPORT SPORT TURINING RIVOJLANISH TARIXI

**Reja:**

**1.1. Kirish**

**1.2. Velosipedning ixtiro etilish**

**1.3. Xorijda velosiped sportini rivojlanish tarixi**

**1.4. O'zbekistonda velosiped sportining rivojlanish tarixi**

### *1.1. Kirish*

*Velosiped sporti* boshqa ming yillik tarixiga ega bo'lgan Olimpiya sport turlariga qaraganda, bor yo'g'i XIX asrning oxirida tashkil topgan. Lekin velosiped sportining yoshligiga qaramasdan u 1896 yil Gretsiyaning Afina shaxrida o'tkazilgan I olimpiya o'yinlarining dasturiga kiritilgan.

Velosiped sporti davriy sport turi bo'lib, o'z ichiga shosse, trek, mauntenbayda, BMX, velotrial, figurali uchush va velobol o'yini bo'yicha sport musobaqalarini o'z ichiga oladi. U qiziqarli va sog'liq uchun foydali sport turlaridan biridir. Velosipeda shamol, yomg'irda uchish, poygalarda qiyinchiliklarni yengib o'tish (teppaga ko'tarilish, tik qoyalardan tushish), musobaqa masofasida betinim diqqatni va tezkor harakatlarga tayyorlikni talab etuvchi, doimiy taktik, raqiblik velosipedchilardan qat'iyat, jasorat, topqirlik, faollik va g'alabaga intilish kabi muhim xususiyatlarni tarbiyalaydi va shakllantiradi.

### *1.2. Velosipedning ixtiro etilish*

Insonning mushak kuchi evaziga g'ildiraklarda harakatlanish g'oyasi o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Inson tomonidan harakatga keltiriluvchi 2,3 va 4 g'ildirakli turli arava va kajavalar bir vaqtning o'zida Rossiyada, Fransiyada, Angliyada va boshqa mamlakatlarda paydo bo'ldi. U vaqtda bunday aravalar *velosfera* deyilib, uni harakatga keltiruvchi inson esa velosipedchi deb atalar edi.

*“Velosiped” nomi ikkita lotincha so'z “velocis” – tez, tezkor va “pes (pedis)” – oyoq yuzi so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilganda “tezkor oyoq” ma'nosini anglatadi.*

*Velosipedning kashf etilishiga ko'pgina ixtirochi va muhandislar qo'l urgan va shunga doir turli g'oyalar bugungi kunga qadar ham davom etib kelayotgan izlanishlar velosipedni rivojlanishiga ta'sir etib kelmoqda. Birinchi velosipedga o'xshash chizmalarni XVI asrning buyuk olimi bulgan Leonardo da Vinchi o'z mexnatlarida ifodalab ketgan. 1800-1801 yillarda Urallik burlak Ye.M.Artamonov “samokat” - o'ziyurar deb atalgan dunyodagi birinchi ikki g'ildirakli velosipedni yasagan. Ye.M.Artamonov velosipedi temirdan yasalgan bo'lib, og'irligi 40 kg dan ortiq edi. Uning oldingi g'ildiragi katta, orqa g'ildiragi esa kichkina bo'lib, oldingi g'ildiragida shatun va pedal - tepkilar joylashgan edi. O'rgimchak nomini olgan bu veosiped rul va egarga ega bo'lib uning yerdan balandligi 1,5 metrni tashkil etgan<sup>1</sup>.*



*O'rgimchak nomli velosiped*

<sup>1</sup>Joe Friel. The cyclists training bible, Colorado, Velo Press, 2011

G'arbda velosiped ilk bor 1808 yilda paydo bo'lgan. Parijda ikki g'ildirakdan va ularni bir biriga bog'lovchi taxtali umurtqadan tashkil topgan yog'och mashina yasali; inson unda tik o'tirib, vaqti-vaqti bilan oyoqlari bilan yerdan itarilib, faqat oldinga qarab harakatlanishi mumkin edi.

1817 yilda nemis ixtirochisi Karl Dreys tomondan "yurish uchun mashina" deb atalgan birinchi samokat yaratilgan. Bu mashina rul va egarga ega bo'lib ixtirochi nomi bilan "drezina" deb ataldi. 1818 yilda bu ixtiroga patent berildi.

**1855 yilda velosipedni xarakatdan to'xtatuvchi (tormozlar) paydo bo'ldi. 1867 yilda ingliz ixtirochisi Madizon va amerikalik Kanelg's simli g'ildirak kegaylarini ixtiro etishdi. Kegayli velosiped g'ildiraklarining kashf etilishi velosiped rivojlanishidagi muhim bosqichga aylandi. Bu muvoffaqiyatli ixtirochi Kauper tomonidan 1867 yilda taklif etilgan va bir yildan so'ng velosipedchilarda velosiped ramasi paydo bo'lishiga olib keldi. 1860 yillarning oxirida ingliz ixtirochisi Louson zanjirli uzatma ixtiro etdi. Shunday qilib, 1869 yilni zanjir uzatmali velosiped paydo bo'lgan yil deb hisoblash mumkin. Shu davrda "O'rgimchak" deb ataluvchi – takomillashtirilgan oldingi g'ildiragi katta bo'lgan velosiped yaratilib, unda uchish havfli edi, biroq oldingi va orqa tishli g'ildiraklarning nisbati 1:1 tashkil etuvchi zanjir uzatmali velosipeddan ko'ra uning harakatlanishi tezroq bo'lib, "o'rgimchak" velosipedida tezlik 25 km/soatni tashkil etar edi<sup>2</sup>.**

Velosipedni mukammallashtirishdagi xaqiqiy to'ntarilish 1885-1888 yillarda, shotlandiyalik Boyd Danlop ixtiro qilgan kauchukli shinalar ixtiro etganda sodir bo'ldi. Ilgari patentlangan rezinali shinalarga qaraganda ular texnik ravishdan mukammalroq va ishonchliroq edi. Bir yildan so'ng pedalli tormozlar va erkin harakat mexanizmi ixtiro etildi. Bu mexanizm velosiped o'zi aylanayotgan vaqtida ham pedallarni aylantirish imkonini berdi. Tahminan shu vaqtda qo'l tormozi xam ixtiro etildi, biroq u ancha keyinroq qo'llana boshlandi.

1903 yilda charhdan charhga o'tgazgich "planetar" moslama ixtiro etildi, lekin bu moslama XX asrning o'tizinchi yillarida qurilayotgan avtomobil yo'llarida yurish tezlikni oshirish uchun kerak bo'lib, sekin asta keng diqqatga sazovor bo'ldi. Bugungi tezlikdan tezlikka o'tkazish mexanizmining o'xshashi 1950 yilda

Italiyalik velopoygachi va velosipedlarni ishlab chiqaruvchi Tullio Kampang'nolo tomonidan ixtiro etildi. 1974 yilda velosipedlar titandan, bir yildan keyin esa ugleplastikdan ishlab chiqarila boshlandi. Xozirgi kunda velosiped tuzilishiga uning mustahkamligini, yengilligini, tashqi ko'rinishini yaxshilashga va unda yuqori tezliklarga erishish imkonini berishga qaratilgan ko'pgina yangiliklar kiritilmoqda. Qisqa muddat ichida velosiped transport, dam olish va sport vositasi turining biriga aylandi.

### **1.3. Xorijda velosiped sportini rivojlanish tarixi**

